"ADOLAT"
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

"HUQUQ va BURCH+" —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=367

2026-yil
5-son
may
ISSN 3093-8546



Migratsiya va yoshlar huquqlari

Luqmonjon Isoqov,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasining kafedra boshlig'i
yuridik fanlar doktori, professor
e-mail: tiramohi@yahoo.fr

Аннотация. Mazkur maqolada zamonaviy globallashuv sharoitida yoshlar migratsiyasining makroiqtisodiy va ijtimoiy determinantlari tadqiq etilgan. Muallif xalqaro tashkilotlarning statistik ma'lumotlariga tayangan holda, yoshlar migratsiyasining sabablari, jumladan, ishsizlik, siyosiy beqarorlik va ta'lim olish istagi kabi omillarni tahlil qiladi. Shuningdek, Germaniya, Kanada va Yaponiya kabi rivojlangan davlatlarning migratsiya siyosati qiyosiy o'rganilib, migrant yoshlar duch kelayotgan ekpluatatsiya va diskriminatsiya muammolariga to'xtalib o'tilgan. Maqola yakunida migratsiya jarayonlarini huquqiy tartibga solish va yoshlarni ijtimoiy integratsiya qilish bo'yicha innovasion takliflar ilgari surilgan.

Калит сўзлар. Yoshlar migratsiyasi, migratsiya huquqi, xalqaro qonunchilik, huquqbuzarliklar, himoya mexanizmlari, global statistika, amaliy tavsiyalar

Аннотация. В данной статье исследуются макроэкономические и социальные детерминанты молодежной миграции в условиях современной глобализации. Опираясь на статистические данные международных организаций, автор анализирует причины молодежной миграции, включая безработицу, политическую нестабильность и стремление к образованию. Также проводится сравнительный анализ миграционной политики развитых стран, таких как Германия, Канада и Япония, и освещаются проблемы эксплуатации и дискриминации, с которыми сталкиваются молодые мигранты. В заключении выдвигаются инновационные предложения по правовому регулированию миграционных процессов и социальной интеграции молодежи.

Ключевые слова. Миграция молодежи, миграционное право, международное законодательство, правонарушения, механизмы защиты, глобальная статистика, практические рекомендации

Annotation. This article examines the macroeconomic and social determinants of youth migration in the context of modern globalization. Drawing on statistical data from international organizations, the author analyzes the drivers of youth migration, including unemployment, political

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

instability, and the pursuit of educational opportunities. Furthermore, a comparative analysis of migration policies in developed nations such as Germany, Canada, and Japan is conducted, highlighting the challenges of exploitation and discrimination faced by young migrants. The paper concludes with innovative recommendations for the legal regulation of migration processes and the social integration of youth

Keywords. Youth migration, migration law, international legislation, violations, protection mechanisms, global statistics, practical recommendations

Zamonaviy transmilliy jarayonlar va global geosiyosiy transformatsiyalar davrida yoshlar migratsiyasi faqatgina demografik harakat emas, balki dunyo iqtisodiyoti va ijtimoiy barqarorligini belgilovchi fundamental strategik omilga aylandi. Globallashuvning intensivlashuvi natijasida mehnat va ta’lim bozorlarining xalqaro integratsiyalashuvi kuzatilmoqda, bu esa o‘z navbatida dunyodagi jami migrantlarning qariyb uchdan bir qismini tashkil etuvchi yosh avlodning ijtimoiy-huquqiy maqomini transformatsiya qilishni taqozo etmoqda. Ushbu jarayon bir tomondan inson kapitalining rivojlanishi va innovatsion bilimlar almashinuvi uchun keng imkoniyatlar eshigini ochsa, ikkinchi tomondan mehnat ekspluatatsiyasi, ksenofobiya va ijtimoiy segregatsiya kabi tizimli xatarlarni keltirib chiqarib, xalqaro huquq normalarini takomillashtirish hamda milliy migratsiya strategiyalarini qayta ko‘rib chiqish dolzarbligini belgilab bermoqda.

Migratsiya bo‘yicha xalqaro tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, hozirgi vaqtda dunyodagi 304 milliondan ziyod xalqaro migrantlarning taxminan 31 foizini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etadi. Bu raqamlar yoshlar migratsiyasi muammosining global miqyosini ko‘rsatadi.

Yoshlar migratsiyasi ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u bir tomondan yoshlarga yangi imkoniyatlar yaratsa, boshqa tomondan jiddiy xatarlarni keltirib chiqaradi. Xususan, Xalqaro Mehnat Tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, ular ko‘pincha mehnat ekspluatatsiyasi, kamsitish va boshqa huquqbuzarliklarga duch kelmoqda. Yevropa, Amerika va Osiyoning bir qancha davlatlari migratsiya markazlariga aylangan.

Yoshlar migratsiyasi global hodisa bo‘lib, uning sabablari va tendensiyalari mamlakatlar va mintaqalar bo‘yicha farq qiladi. Ta’lim olish imkoniyatlarini izlash, ish va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini topish yoshlar migratsiyasining muhim sabablaridandir. Ayni paytda, dunyoda 73 million nafar yoshlar ishsiz bo‘lib, ularning ko‘pchiligi ish topish maqsadida migratsiyani tanlaydi[1]. Bugungi kunda dunyo davlati tomonidan o‘z ichki zaxiralarini, tabiiy boyliklarini maksimal darajada saqlab, iqtisodiyotni boshqa omillar orqali rivojlantirishga harakat qilinmoqda.

Iqtisodiy qiyinchiliklar ko‘plab yoshlarni o‘z mamlakatlarini tark etishga majbur qiladi. Bu omil ham migratsiya jarayonining asosiy sabablaridan biridir.

O‘tgan 2025 yilda AQShga kelgan migrantlar soni 50,6 millionni tashkil etgan bo‘lsa, Meksikadan immigratsiya oqimi taxminan 11 millionni tashkil etadi va ularning ko‘pchiligi yoshlardir[2]. Nigeriyada yoshlar ishsizligi darajasi 2020 yilda 53.4% ni tashkil etgan, bu ko‘plab yoshlarni chet elga ish qidirish uchun ketishga majbur qilmoqda[3]. Ko‘plab Afrika davlatlaridagi qurg‘oqchilik va ocharchilik sababdan tub aholining aksariyat qismi dunyoning rivojlangan davlatlariga ko‘chib o‘tmoqda. Bundan tashqari, harbiy mojarolar va siyosiy beqarorlik ham ko‘plab yoshlarni majburiy migratsiyaga undaydi. Janubiy Sudandagi fuqarolar urushi natijasida 2.3 million odam qochqinga aylangan, ularning ko‘pchiligi Kongo Demokratik Respublikasi, Efiopiya va Uganda respublikalarida boshpana topishgan[4].

Umuman olganda, yoshlar migratsiyasi bugungi kunda global miqyosda dolzarb masala bo‘lib, davlatlar tomonidan ishlab chiqiladigan siyosatlar va dasturlar ushbu jarayonni boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Dunyo bo‘ylab ko‘plab yoshlar o‘z mamlakatlarini tark etish orqali rivojlangan davlatlarda ta’lim olish yoki ishlash imkoniyatlariga ega bo‘lmoqdalar. Xususan, AQSh, Yevropa Ittifoqi, Kanada va Xitoy kabi davlatlar yosh migrantlar uchun asosiy manzil bo‘lib, maxsus dasturlar va qonunlar orqali ularni jalb qilishga qaratilgan siyosatlarni ishlab chiqqan. Boshqa tomondan, siyosiy beqarorlik va harbiy mojarolar natijasida ko‘plab yoshlar majburiy migratsiyaga duch kelib, qochqinlar safini kengaytirmoqda.

Yoshlar migratsiyasi global miqyosda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uning huquqiy asoslari va xalqaro mexanizmlari murakkab tizimni tashkil etadi. Bu masala ko‘plab xalqaro shartnomalar, milliy qonunchilik va turli davlatlarning amaliyotida o‘z aksini topgan.

Turli mamlakatlar yoshlar migratsiyasiga turlicha yondashuvlarni qo‘llaydi. Germaniya “Duale Ausbildung”[5] tizimi orqali xorijlik yoshlarga kasb-hunar ta’limi va ish tajribasini taklif etadi hamda bir qator dasturlar orqali malakali mutaxassislarni jalb qiladi. Kanada “Express entry” tizimi va “Post-graduation work permit” dasturi orqali malakali yoshlarni mamlakatga jalb qilishga harakat qiladi[6]. Avstraliya “skilled independent” visa va “Working holiday” visa kabi dasturlar bilan yoshlarga ko‘plab imkoniyatlar taqdim etadi. Yaponiya esa “Technical intern training program” [7] va “Highly Skilled Professional” [8] viza orqali xorijlik yoshlarni jalb qilishga intiladi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari ko‘pincha umumiy migratsiya siyosatiga ega bo‘lib, Shengen zonasi orqali harakatlanish erkinligini ta’minlaydi. Shimoliy Amerika mamlakatlari, xususan AQSh va Kanada, ko‘proq ball tizimi asosida malakali migrantlarni tanlashga e’tibor qaratadi. Osiyo mamlakatlari, masalan Yaponiya va Janubiy Koreya, ko‘pincha

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

vaqtinchalik mehnat migratsiyasiga yo‘naltirilgan dasturlarni amalga oshiradi.

Shuni ta’kidlash joizki, migratsiya qonunlari va dasturlari doimiy ravishda o‘zgarib turadi. Shu sababli, eng so‘nggi ma’lumotlarni doimo rasmiy manbalardan tekshirib turish muhim ahamiyatga ega. Yoshlar migratsiyasi sohasidagi huquqiy asoslar va xalqaro mexanizmlar murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, ular global miqyosda insonlar harakati va iqtisodiy rivojlanishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Yangi imkoniyatlar qidirish va o‘z hayotini yaxshilash maqsadida amalga oshirilayotgan migratsiya jarayonida yoshlar bir qancha muammolarga, huquqbuzarliklarga duch kelishmoqda. Jumladan:

birinchidan, **irqchilik, kamsitish va ksenofobiya**. Yevropa Ittifoqi Asosiy huquqlar agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida yashovchi yosh migrantlarning 30-40% dan ortig‘i kamsitish va irqchilikka duch kelgan [9];

ikkinchidan, **mehnat ekspluatatsiyasi va majburiy mehnat.** Ko‘plab yosh migrantlar mehnat ekspluatatsiyasiga duch kelishadi. Ish beruvchilar tomonidan past maosh, uzoq ish soatlari, yomon ish sharoitlari va mehnat huquqlarining buzilishi keng tarqalgan. Misol uchun, Janubi-Sharqiy Osiyoda mehnat migrantlari, ayniqsa, qurilish va xizmat ko‘rsatish sohalarida ishlovchi yoshlar, ekspluatatsiya va huquqiy himoya yo‘qligi bilan duch kelishadi. Tailand va Malayziyada ko‘plab yoshlar o‘z huquqlarini himoya qilish imkoniyatlaridan mahrum bo‘lgan holda noqonuniy mehnat sharoitlarida ishlamoqda.

uchinchidan, **ijtimoiy himoyadan foydalana olish imkoniyatining cheklanganligi.** Migrantlar ko‘pincha huquqiy himoyadan mahrum bo‘lishadi. Ular o‘z huquqlarini himoya qilishda huquqiy ma’lumot yetishmasligi, hujjatlarning yo‘qligi yoki yashash huquqining noqonuniyligi tufayli muammolarga duch keladi. Misol uchun, AQShda hujjatsiz migrant yoshlar ko‘pincha deportatsiya xavfi ostida bo‘lib, ularning ta’lim olish, sog‘liqni saqlash va ish topish huquqlari cheklangan.

to‘rtinchidan, **odam savdosi va jinoyatchilik to‘rlariga tushib qolishi.** Migrantlar odam savdosining asosiy qurbonlaridan biri bo‘lib, noqonuniy migratsiya yo‘nalishlarida buzg‘unchi tarmoqlar tomonidan suiiste’mol qilinadi. Yevropa Ittifoqi davlatlari, xususan Italiya va Gretsiya, Afrikadan va Yaqin Sharqdan kelgan yosh qochqinlar orasida inson savdosi qurbonlarining ko‘payishi bilan duch kelmoqda. Ushbu yoshlar ko‘pincha jinsiy ekspluatatsiya yoki majburiy mehnat uchun foydalanilmoqda. Masalan, Gretsiyada o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, davlatga hamrohsiz kelgan voyaga yetmagan migrantlarning kupchiligi zo‘ravonlik yoki ekspluatatsiyaga uchragan[10].

Yosh migrantlarni huquqlarini himoya qilish uchun bugungi kunning dolzarb mavzusiga aylangani sir emas. Quyidagi mexanizmlar va innovasion yondashuvlar mavjud muammolarni hal qilishda va huquqbuzarliklarni oldini olishda muqobil yechim bo‘la oladi:

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

1. Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va davlatlararo kelishuvlarni tuzish lozim. Davlatlararo kelishuvlar migrantlarning huquqlarini xalqaro miqyosda tan olish va himoya qilish imkonini beradi. Xalqaro hamjamiyat 2018 yilda Marokash shahrida “Xavfsiz, tartibli va qonuniy migratsiya to‘g‘risida”gi Global shartnomani ma’qulladi va bu migrantlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qoidalarni o‘z ichiga oladi. Bunday xalqaro kelishuvlar milliy qonunchilik va amaliyotlarni xalqaro standartlarga moslashtirishga undaydi va migrantlarga bir xil himoya darajasini ta’minlashga yordam beradi. Davlatlararo kelishuvlar migrantlar uchun qonuniy asoslarni yaratadi, bu esa ularning mamlakatlararo harakatlanishini tartibga soladi va himoya qiladi. Masalan, Yevropa Ittifoqi davlatlari o‘rtasidagi Shengen kelishuvi shartnomani imzolagan mamlakatlar o‘rtasida migrantlar uchun erkin harakatlanishni ta’minlaydi va ularning huquqlarini himoya qiladi. Bunday kelishuvlar orqali migrantlarning huquqlari xalqaro darajada himoya qilinadi, va ular noqonuniy migratsiyadan himoyalanish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

2. Yosh migrantlar uchun maxsus dasturlar va loyihalarni ishlab chiqish, fuqarolik jamiyati va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali ular huquqlarini himoya qilish va qo‘llab-quvvatlash choralari muhim ahamiyatga ega. Masalan, Yevropa Ittifoqining “Erasmus+” dasturi yosh migrantlarga ta’lim olish va malaka oshirish imkoniyatlarini taqdim etadi[11] bu ularning jamiyatga integratsiyalashuvini yengillashtiradi. Shu bilan birga, “Save the children” xalqaro tashkiloti yosh migrantlar va qochqinlar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha ko‘plab loyihalarni amalga oshirib, ularni ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga hissa qo‘shmoqda[12] Shuningdek, Yevropa Ittifoqining “Erasmus+” dasturida ishtirok etgan yosh migrantlarning 85% dasturdan so‘ng o‘z kasbiy imkoniyatlarini sezilarli darajada yaxshilanganini ta’kidlagan[13]. Ushbu chora-tadbirlar yosh migrantlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish uchun muhim vositalar sifatida xizmat qiladi.

3. Ijtimoiy integratsiya dasturlarini kuchaytirish va ta’lim tizimini moslashuvchan qilish yosh migrantlarning jamiyatga qo‘shilishini osonlashtiradi. Kanadaning “Youth Employment Strategy” dasturi bu borada namuna bo‘la oladi[14]. Ushbu dastur yosh migrantlarning mehnat bozoriga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini qo‘llab-quvvatlash maqsadida ishlab chiqilgan bo‘lib, ularga ish topishda yordam beradi, kasbiy malakani oshirish imkoniyatlarini taqdim etadi, shuningdek, mehnat bozoriga kirishda duch keladigan to‘siqlarni bartaraf etishga qaratilgan ko‘plab xizmatlar bilan ta’minlaydi. Ushbu tizimda yosh migrantlarga nemis tili va boshqa asosiy fanlarni o‘rgatish orqali ularning mahalliy maktablarda muvaffaqiyatli ta’lim olishlari uchun zarur tayyorgarlik ko‘riladi. Bu kabi tashabbuslar yosh migrantlarning ta’lim va mehnat bozorida muvaffaqiyatli integratsiyasini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Shu tariqa, yoshlar migratsiyasini samarali boshqarish faqatgina chegara nazoratini kuchaytirish bilan emas, balki xalqaro hamkorlikning institutsional mexanizmlarini mustahkamlash va migrantlarning ijtimoiy-huquqiy himoyasini ta’minlovchi kompleks yondashuvlar orqali amalga oshirilishi lozim. Rivojlangan davlatlarning (Germaniya, Kanada, Yaponiya) malakali kadrlarni jalb qilish borasidagi ijobiy tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ta’lim va kasbiy integratsiya dasturlarini ijtimoiy himoya mexanizmlari bilan uyg‘unlashtirish migratsiyaning salbiy oqibatlarini minimallashtirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Global miqyosda "Xavfsiz, tartibli va qonuniy migratsiya to‘g‘risida"gi shartnoma tamoyillarini hayotga tatbiq etish hamda yosh migrantlarning intellektual va mehnat salohiyatini mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotiga yo‘naltirish, insoniyatning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning muhim kafolati bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mazaraki A., Melnyk T., Losheniuk O. Global trends in youth employment: Key statistics and cultural commentary //Markets, Globalization & Development Review. – 2025. – T. 10. – №. 1.

2.https://iworld.com/ru/blog/which-country-has-the-most-migrants.

3.Omoju O. E. et al. Empirical Review of Youth Employment Programmes in Nigeria //Youth Employment Programmes in Africa. – 2025. – P. 111-140.

4.Agyemang E. A. et al. Refugee Movements in Africa: A Case Study of Sudan //International Journal of Research and Scientific Innovation (IJRSI). – 2026. – T. 13. – №. 1.

5.Litschel V. Übergang in die duale Ausbildung während der Adoleszenz //Lebenswege junger Menschen in Wien: Analysen zu Berufswahl, Engagement und Wohlbefinden. – 2025. – P. 81.

6.Vosko L. F. Probationary precarity? Differential inclusion among post-graduation work permit-holders in Canada //International Migration. – 2025. – T. 63. – №. 1.

7.Chonlaworn P. Cheap and dispensable: Foreign labor in Japan via the technical intern training program //jsn Journal. – 2021. – T. 11. – №. 1. – P. 33-49.

8.Oishi N. Redefining the “highly skilled”: The points-based system for highly skilled foreign professionals in Japan //Asian and Pacific Migration Journal. – 2014. – T. 23. – №. 4. – P. 421-450.

9.Dang R. Perceived discrimination when using health-care services, health outcomes, and health-care utilisation among Romani people in Europe: evidence from the second European Union minorities and discrimination survey //The Lancet Global Health. – 2022. – T. 10. – P. S11.

10.Digidiki V., Bhabha J. Sexual abuse and exploitation of unaccompanied migrant children in Greece: Identifying risk factors and gaps in services during the European migration crisis //Children and Youth Services Review. – 2018. – T. 92. – C. 114-121.

11.Nogueiro T. et al. The Erasmus+ Programme and Sustainable Development Goals—Contribution of mobility actions in higher education //Sustainability. – 2022. – T. 14. – №. 3. – P. 1628.

12.Gnaerig B., MacCormack C. F. The challenges of globalization: Save the Children //Nonprofit and Voluntary Sector Quarterly. – 1999. – Т. 28. – №. 1_suppl. – С. 140-146.

13.Nogueiro T. et al. The Erasmus+ Programme and Sustainable Development Goals—Contribution of mobility actions in higher education //Sustainability. – 2022. – Т. 14. – №. 3. – P.1628.

14.Coderre M., Nakache D. From working tourists to permanent residents: Experiences of migrant workers with youth mobility schemes in Canada //Journal of International Migration and Integration. – 2022. – Т. 23. – №. 3. – P. 971-988.